



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-iyun

RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar-iyun oylarida bozor xizmatlari hajmi 4 135,1 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 123,0 % ni tashkil etdi.
- Savdo xizmatlari ulushi ko'rsatilgan umumiy xizmatlar hajmida 34,1 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1 138,3 ming.so'mni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejashiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 4 135,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,7 % ni tashkil etdi.


Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta hajm, savdo xizmatlari (1 411,6 mlrd.so'm) tashkil etadi.

Ko'rsatilgan xizmatlar hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm



2018 yil yanvar-iyun oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari Uchko'prik tumanida (113,0 %), Farg'ona shahrida (108,9 %), Yozyovon tumanida (106,2 %), Quvasoy shahrida (105,7 %) qayd etildi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Rishton (96,6 %), Toshloq (98,6 %), Dang'ara (100,7 %) tumanlarida kuzatildi.

**2018 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**


	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Farg'ona viloyati	4 135,1	105,7
Farg'ona sh.	1 830,1	108,9
Qo'qon sh.	534,0	101,7
Quvasoy sh.	66,3	105,7
Marg'ilon sh.	433,7	104,2
Oltiariq t.	110,0	101,8
Qo'shtepa t.	65,8	102,7
Bag'dod t.	91,0	104,4
Buvayda t.	80,8	103,1
Beshariq t.	110,7	103,7
Quva t.	93,9	104,6
Uchko'prik t.	119,7	113,0
Rishton t.	85,5	96,6
So'x t.	33,0	103,4
Toshloq t.	95,4	98,6
O'zbekiston t.	87,2	104,3
Farg'ona t.	114,0	105,4
Dang'ara t.	92,0	100,7
Furqat t.	40,1	105,2
Yozyovon t.	51,9	106,2

Hududlar o'rtasida eng katta xizmatlar hajmi Farg'ona (1 830,1 mlrd.so'm), Qo'qon shahrlariga (534,0 mlrd.so'm) to'g'ri keladi.

Eng past hajmlar So'x (33,0 mlrd.so'm), Furqat (40,1 mlrd.so'm) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar o'rtasida Farg'ona shahri etakchi o'rinni egallaydi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida Farg'ona shahrining ulushi 44,2 % ni tashkil qiladi. Shu bilan birga, xizmatlar umumiy hajmida hududlar bo'yicha eng yuqori ulushlarni Qo'qon (12,8 %), Marg'ilon (10,4 %) shaharlari, Uchko'prik (2,9 %) va Farg'ona (5,5 %) tumanlari tashkil etadi.


2018 yil yanvar-iyun oylarida respublika bo'yicha jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi (jami hajmga nisbatan), %



Hududlar o'rtasida eng past ulushlar So'x (0,8 %), Furqat (1,0 %), Yozyovon (1,3 %) va Qo'shtepa (1,6 %) tumanlariga to'g'ri keladi .

2018 yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1 138,3 ming. so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 104,1 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar




Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Farg'ona shahrida – 6 544,4 ming. so'm qayd etildi. 2017 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish 7,2 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi Qo'shtepa tumanida – 360 ming. so'm kuzatildi, o'sish sur'ati 100,9 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha moliyaviy xizmatlar (123,2 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (116,7 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (116,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (114,0 %) bo'yicha yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida bozor xizmatlarining iqtisodiy faoliyat turlari



Farg'ona viloyati statistika boshqarmasi
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: Sh.Jo'rayev
Tel.: (073) 241-72-44